MUMTOZ ADABIYOTDA MIRZO ULUG‘BEK MADHI VA TALQINLARI

Marg‘uba Abdullayeva,
filolofiya fanlari doktori, professor
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20427435

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Mirzo Ulug‘bek siymosining mumtoz adabiyotdagi madh va talqinlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Ulug‘bekning ilm-fan homiysi, adolatparvar hukmdor hamda ma’rifat timsoli sifatida tasvirlanishiga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, Mirzo Ulug‘bek obrazining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mirzo Ulug‘bek, mumtoz adabiyot, madh, talqin, Temuriylar davri, ilm-fan, badiiy obraz, ma’rifat.*

Abstract. *Abstract. This article analyzes the praise and interpretations of the figure of Mirzo Ulugh Beg in classical literature. The study focuses on his portrayal as a patron of science, a just ruler, and a symbol of enlightenment. Additionally, the distinctive features of the image of Mirzo Ulugh Beg are highlighted.*

Keywords: *Mirzo Ulugbek, classical literature, praise, interpretation, Timurid period, science, artistic image, enlightenment.*

Аннотация. *Аннотация. В настоящей статье анализируется воспевание и интерпретация образа Мирзы Улугбека в классической литературе. Исследование сосредоточено на изображении Улугбека как покровителя науки, справедливого правителя и символа просвещения. Также освещаются характерные черты образа Мирзы Улугбека.*

Ключевые слова: *Мирзо Улугбек, классическая литература, восхваление, интерпретация, эпоха Тимуридов, наука, художественный образ, просвещение.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-sentyabrdagi “Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash” to‘g‘risidagi qarorida “buyuk ajdodimiz asarlarining milliy va umuminsoniy mazmun-mohiyatini, ularning yosh avlod intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirish va shu asosda Yangi O‘zbekistonning munosib bunyodkorlari etib tarbiyalash borasidagi beqiyos o‘rni va ahamiyatini inobatga olib, Mirzo Ulug‘bek ilmiy-ma’rifiy merosini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda yanada chuqur o‘rganish va targ‘ib etish” kabi muhim vazifalar belgilab qo‘yilgan edi. Umuman olganda, temuriylar davrida yaratilgan tarixiy va boshqa mavzudagi asarlarni o‘rganish va chop etish qoniqarli darajada emas. Mirzo Ulug‘bekning ko‘p qirrali faoliyati o‘zining tadqiqotchilarini kutib turibdi.

Adabiyotlar sharhi. O‘z zamonasidan boshlab o‘tgan asrlar mobaynida va bugungi kungacha ham Ulug‘bek siymosi, uning ilmiy merosi, ijodi, faoliyati va ta’lim sohasiga qo‘shgan hissasi tarixiy asarlarda, tazkira va bayozlarda, badiiy asarlarda o‘ziga xos tarzda ulug‘langan. Jumladan, Shamsuddin Ali ibn Jamolulislomning 1399-1403-yillarda yozilgan “Temurning Hindistonga qilgan yurishlari kundaligi”, Nizomiddin Shomiyning 1401-1402-

yillarda yozilgan “Zafarnoma”, Shohobuddin Abdulloh ibn Lutfulloh al-Havofiyning (u Hofizi Abru nomi bilan ham mashhur) XV asr 20-yillarining ikkinchi yarmida yozilgan “Zubdat ut-tavorix”, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Zayniddin Vosifiyning “Badoe’ ul-vaqoe” asarlarida Mirzo Ulug‘bekning turli davrlardagi faoliyati haqida qimmatli fikrlar bildirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik hamda hermenevtik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida mumtoz adabiyot namunalarida Mirzo Ulug‘bek obrazining madh va talqinlari badiiy-estetik jihatdan o‘rganildi. Shuningdek, adabiy manbalarni tekstologik tahlil qilish orqali ijodkorlarning tarixiy shaxsga munosabati hamda badiiy tasvir vositalari aniqlashtirildi.

Tahlillar va natijalar. Mirzo Ulug‘bek hayoti va ijodini o‘rganish o‘z davridan boshlangan edi. Jumladan, Hasan Attor, Xoja Ismatulloh Buxoriy, Kamol Badahshiy va Sakkokiy Mirzo Ulug‘bekka atab qasidalar bitgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Xoja Ismatulloh Buxoriy temuriylarga bag‘ishlab 75 ta qasida bitgan. Shulardan bir nechtasi Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlab yozilgan. Buni Boburning “Muxtasar” asarida keltirilgan dalil ham isbotlaydi. *“Mutaqorib bahrining maqbuzi aslam vaznining o‘n olti rukn bila aytibdurlar, nechukkim Xoja Ismat(ulloh) Buxoriy Ulug‘bek Mirzoning otig‘a bu vaznda purkor qasida tugatibdur, matla’i budur:*

Zihi du chashmat ba xuni mardum kushoda tiru kashida xanjar,
Ruhi chu mohat sabohi davlat, xati siyohat shabi muanbar.

Bundan tashqari Xoja Ismatulloh Ulug‘bekning xalq uchun qilgan yaxshi ishlari haqida hikoyatlar ham yozgan.

B.Ahmedovning “Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida” risolasida quyidagi ma’lumotni keltiradi: “Ammo Xoja Ismatulloh olam podshohi Ulug‘bek Ko‘ragon hukmronligi davrida hokimlarni madh etishni tark etdi. Nomi tilga olingan Sulton undan she’r aytishni o‘tinib so‘radi. Zarurutdan ul hazrat madhida bir necha qasida yozdi...” [1:10].

Ayniqsa, Ulug‘bek davrida yashab ijod etgan turkiygo‘y shoirlar ijodida uning siymosi badiiy obraz darajasiga ko‘tarilgan. Jumladan, Shayx Taroziy, Ismat Buxoriy, Sakkokiy qasidalarida yuqori maqomda madh etilgan. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida ilm podshosi sifatida ta’riflangan.

Mumtoz adabiyotda tarixiy shaxslar obrazi – bu tarixda haqiqatan yashagan va muhim rol o‘ynagan shaxslarning adabiy yoki san’at asarlarida tasvirlanishidir. Bunday obrazlarda shaxsning sifatlari, fazilatlari, xatolari va boshqa xususiyatlari aks etishi mumkin. Tarixiy shaxs obrazini yaratishda muhim rol o‘ynaydigan omillar mavjud. Bular:

1. Tarixiy haqiqat – bunda asarda tarixiy shaxslarning haqiqatda yashagan davrlari, hodisalari va munosabatlari saqlanishi nazarda tutiladi.
2. Adabiy erkinlik – ya'ni asar muallifining tarixiy shaxslar obrazini o'zgartirish, o'z fikrini bidirish huquqi mavjudligi.
3. Ijodkorning fikri – tarixiy shaxsga nisbatan munosabati aks etadi. Tarixiy shaxslar obrazini yaratishda mualliflar turli sabablarga ko'ra turli yondashuvlarni tanlaydi.
4. Ijodiy yondashuv - tarixiy shaxslarni o'zgartirish, qayta ishlash.
5. Tarixiy shaxsning shaxsiyligini saqlab qolish. Shaxs sifatlarini, fazilatlari va xatolarini ko'rsatish.

Tarixiy shaxs obrazini yaratish omillaridan kelib chiqib, bir qancha asarlar misolida Ulug'bek tasvirini ko'rib chiqamiz.

Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari Mirzo Ulug'bekka bag'ishlangan. "Funun ul-balog'a"da Taroziy tarje'band she'rlarning beshinchi turi – marsiya va madhiya tariqida bo'ladi, deb madhiya tarje'bandga misol qilib Ulug'bekka bag'ishlangan bir qasidani berib o'tgan. A.Hayitmetovning ta'kidlashicha, "Tarje'band shaklida yozilgan ushbu qasida Ulug'bekni madh etishga bag'shlangan bo'lib, uning muallifi aytilmagan. Bizning taxminimizcha, bu she'rning muallifi ham Shayh Ahmad Taroziyning o'zi bo'lib, badiiy jihatdan ulug' shoir Sakkokiy qasidalari darajasida va ularning ta'sirida yaratilgan" [1:25]. Qasida matnini keltiramiz:

Eyki aqling haybatidin tutti olam intizom,
Zoti poking birla taxtu toj topti ehtirom. (19 [a])
Kecha-kunduz xizmat uchun eshiking yastong'uchi
Anbaru kofur otlig' ikki quldur subhu shom.
Notamom erdi jahonda podsholiq oyini;
Senki paydo bo'ldung ochunda, bu ish bo'ldi tamom.
Abr saqqoyedur, eshikingda doim suv separ;
Bod farroshyedur – eshiking supurar bardavom.
Majlisingda sog'aredur oftobi Zardo'sh;
Mahfilingda shishayedur gunbadi fero'zafom.
Hazratingdagi tobuqchidurki, saqlar taxtin;
Hidmatingda Jam ayoqchidurkim, asror elda jom.
Xisravi iqlimgiru shahriyori tojbaxsh;
Podshihikim aning davrinda topti din nizom.
Sarvari mardi salotin, mehtari shohi jahon;
Mafxari dunyovu din Sulton Ulug'bek Ko'ragon.

Madhiyaning mazmuni quyidagicha: Aqling haybatini olam intizor bo‘lib kutdi. Zoti poking bilan toju taxt ehtirom topti. Kechayu kunduz eshigingni oldida ikki quling – subh va shom xizmatingda. Jahonda podsholik o‘yini tugamagan edi, senki paydo bo‘lding ochunda bu ish tamom bo‘ldi. Seryomg‘ir bulutlar eshigingga doim suv sepadi. Bod-shamol farroshing bo‘lib har doim eshigingni supuradi. Majlisingda may quyuvchi oftobli Zardo‘sht. Majlising joyida feruzafom shishali gunbaz, ya’ni ko‘k osmon. Itoatkor xizmatchilaring taxtingni saqlaydi. Xizmatingda Jamshid oyoqda turib, elingni asraydi. Xisravu iqlimgir, shahriyoru tojbaxsh. Sening podshohlik davringda din nizom topdi. Sultonlarning mardi, sarvari, mehtari – shohi jahon. Dunyo va dinning mehvari Sulton Ulug‘bek Ko‘ragon.

Taroziy qasidada Ulug‘bekka undan oldin yashab o‘tgan donishmandlar, payg‘ambarlar, hukmdorlarning eng ulug‘ sifatlarini berib, badiiy umumlashma hosil qilgan. Badiylik obrazning misli ko‘rilmagan, yangi o‘ylab topilgan o‘xshatishlar, sifatlashlar, mubolag‘a va bo‘yoqdorlik kabi tasvir vositalarida yuzaga chiqadi. Qasidaning ikkinchi bandida hukmdorning shaxsiy sifatlariga urg‘u beradi. Mulkdorligi, adolati, shijoati, g‘ayrati, ta’rifu tavsif qilinadi. Shunisi ahamiyatliki, Ulug‘bek tasviri orqali biz o‘sha davr haqida keng va aniq ma’lumotga ega bo‘lamiz. Bu badiiy obrazga xos xususiyatdir. Qasidani o‘qiganda Ulug‘bekka nisbatan qandaydir emotsiya, estetik hissiyot uyg‘onadi. Bu shoirning badiiy mahorati orqali hosil qilinadi.

Mulkdorikim, oni o‘z soyasidin zul-minan
Qildi paydo-vu jahonni etti adlidin chaman.
Xusravikim, majlisining sham’idur bu oftob;
Lojuvardiy charx erur sham’ig‘a bir charxi lagan.
Ichsa adli jomidin naxchir bo‘lur shergir;
Tarbiyat qilsa, yarimtuq pashsha bo‘lur piltan.
Har so‘zi erur hirad durjinda bir durr-i samin, -
Kim erur bir so‘ziga yuz ming guhar bori suman.
Gard ichinda chiqmag‘ay – bu ashqar-i gardun agar –
Jumladin bo‘lsa kamiti ish kuninda kom-i zan.
G‘ayratidin gurz olib, maydonda qilsa na’raye,
Erigay mumung agar po‘lod bo‘lsa Tahmtan.
Royatin to intizomi mulk uchun qildi baland,
Past bo‘ldi, yer yuzinda qolmadi, sho‘ru fitan (19[b])
Ey shahonshohiki, adlingdin qilurlar iftihor,
Insu jinu murg‘u mohiyu vuhushu mo‘ru mor.

Mazkur qasida ikki bandli bo‘lib, har bir bandi 16 misradan jami 32 misrani tashkil qiladi. Qasidaning adabiy-badiiy qimmati shundaki, unda Ulug‘bekning shaxsiy sifatlari

madh etilishi bilan birga, o‘sha davr ijtimoiy-maishiy ahvoli, siyosiy adolat va tarixiy jarayon haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

“Funun ul-balog‘a” asarining badiiy san’atlarga bag‘ishlangan qismida “husnu taxallus” san’atiga misol qilib, Ulug‘bek Ko‘ragon tilga olingan misralarni keltiradi:

Savdoyidur magar sari zulfingki, zulm etar,
Bandsen dodu adl bila, xusravi jahon.
Ma’murdur boshdin-ayoq yer yuzi tamom,
Sultonu baru bahr Ulug‘bek Ko‘ragon.

Sharh: Agar xayoli buzilib, zulfing sari borsa, zulm etar. Adolat ko‘rsatmoq uchun, mashg‘ulsan xusravi jahon. Shu sabab yer yuzi boshdan oyoq oboddir. Yer, quruqlik va dengizlarni sultonisan Ulug‘bek Ko‘ragon.

Sakkokiyning Ulug‘bekka bag‘ishlangan qasidasi ham olimlarimiz tomonidan ko‘p bora tadqiq qilingan. Shu bois bu mavzuga batafsil to‘xtalib o‘tishni joiz bilmadik. Eng muhim jihatlaridan biri bir necha yillar davomida shoir devonida Ulug‘bek Mirzoga bag‘ishlangan ikki qasida o‘rtasida hech qanday belgi qo‘yilmaganligi, aniqrog‘i, keyingi qasida sarlavhasiz bo‘lganligi uchun ular to‘rtta sanalib kelinar edi. Mashhura Hasanovaning qasida janri bo‘yicha olib borgan tadqiqotida bunga aniqlik kiritilib, shoirning Ulug‘bekka bag‘ishlangan qasidalari soni 5 ta ekanligi isbotlandi. Shoirning Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlagan qasidalari badiiy jihatdan pishiq. Chuqur tafakkur bilan tasvirlangan. Jumladan, Ulug‘bekning taxtga o‘tirishi munosabati bilan yozilgan qasidasida shunday tasvirlar bayon qilingan:

Jahondin Ahraman ketib musaxxar bo‘lg‘oy insu jon,
Kim o‘sh taxtini yel ko‘trub Sulaymoni zamon keldi.
Boyindi taxtining qadri, o‘zung toj ko‘kka toshlodi,
Adolat bog‘i sabz o‘ldi, chu No‘shiravon keldi,

misralarida Ulug‘bekning yovuz devlarni yengib, jonni insu jinslardan himoya qilishi, yel (shamol) taxt keltirib, go‘yoki Sulaymoni zamon kelganini tasvir etadi. U o‘tirgan taxtning qadri shunchalik balandki, podshohning toji ko‘kka yetadi, deb takrorlanmas mubolag‘alar qiladi. Adolat bog‘i ko‘karib, huddiki No‘shiravon kelganday bo‘ldi. Shoir Ulug‘bekni ta’riflar ekan, talmeh san’ati orqali uning sifatlarini sanab, madh qiladi.

Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida Ulug‘bek mirzoni Iskandardan keyin kelgan ilm podshosi sifatida e’tirof etib, shunday madh qiladi.

Temurxon naslidin sulton Ulug‘bek,
Ki olam ko‘rmadi sulton aningtek.
Aning abnoyi jinsi bo‘ldi barbod,
Ki davr ahli biridin aylamas yod.
Va lek ul ilm sori topti chun dast,

Ko‘zi ollinda bo‘ldi osmon past.
Rasadkim, bog‘lamish – zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur.
Bilib bu nav’ ilmi osmoniy -
Ki, andin yozdi “Ziji Ko‘ragoniy”.
Qiyomatga deguncha ahli ayyom,
Yozarlar oning ahkomidin ahkom. [“Farhod va Shirin”; 451-452]

Navoiy Shoh G‘arib Mirzoga nasihat berar ekan, Iskandar va Ulug‘bek singari ilm bilan dunyoni, xalqni boshqarish kerakligini uqtiradi. Anglash mumkinki, Navoiy podshohlarning ilmli bo‘lishini jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘lagan. Darhaqiqat, ilmiy tafakkur jamiyatni boshqarish uchun kalit. Mirzo Ulug‘bek ham buni o‘z davrida to‘g‘ri anglagan va har bir insonni ilmli, hunarli, ma’rifatli bo‘lishini istagan. Uning madrasa ta’limidagi bu kabi xizmatlari alohida tadqiqotlarda o‘rganilishiga umid qilib qolamiz.

Tahlillardan kelib chiqib aytish mumkimki, mumtoz adabiyotda Ulug‘bek madhi va talqinlari bu tarixiy shaxsni umumlashma tarzda badiiy obraz sifatida namoyon etadi. Qasidalarda Ulug‘bekning badiiy manzarasi tasvir etilgan bo‘lib, asar markazida aniq bir tarixiy shaxs (protatip-hukmdor) turadi va hayotining barcha jihatlarini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, Mirzo Ulug‘bek o‘ta zukko va ilmli shaxs bo‘lib, Qur’oni Karimni yod bilgan, arab va fors tillarini yaxshi bilib, tafsir va hadis ilmi bobida bilimdon fiqh, mantiq, adabiyot, musiqa, riyoziyot va falakiyot ilmlarini chuqur bilgan qomusiy olim bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bek islom olamida ilk bora hukmdorlik va olimlik darajasini birgalikda olib borgan ilm podshosidir. Uning aniq fanlarga oid asarlari ilmiy o‘rganildi. Biroq adabiyot, tarix, din va musiqaga oid asarlari yetarli darajada tadqiq etilgan emas.

Mirzo Ulug‘bek sulton bo‘lsa-da, talabalarga dars bergan. U Samarqandda Registon ansambli tarkibida hamda Go‘ri Amir ansambli tarkibida madrasalar barpo etgan. Shu madrasalarda haftada bir marta ma’ruza o‘qib, ilmi toliblarga dars bergan. Biz yaqin yillargacha Mirzo Ulug‘bekni astronom olim, matematik sifatida bilar edik. Bugun u haqida yangi ilmiy tadqiqotlar yaratilib, uning tarix, adabiyot va musiqada ham mohir bo‘lganligini asoslovchi manbalar borligi aniqlandi. Demak, Mirzo Ulug‘bek ijodini har tomonlama chuqur o‘rganish, u bilan bog‘liq mumtoz manbalarni tadqiq etish adabiyotshunoslik oldida turgan muhim vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдураҳмонов А. Улуғбек академияси. Қомуслар бош таҳририяти. – Тошкент: - Б. 6.
2. Абрамов М. Улугбек и благоустройство городов Узбекистана (Самарканд, Бухара, Гиждуван, Шахрисабз). Самарканд, 1991.
3. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. Ғафур Ғулом. – Тошкент: 2020. -528 б.
4. Аҳмедов Ашраф. Улуғбек рисоласи. – Тошкент: Фан.1991.

5. Валихўжаев Б. *Самарқандда олий таълим - мадрасайи олия-университет тарихидан лавҳалар.* Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. – Тошкент:2001. –Б.14.
6. Зайниддин Маҳмуд Восифий. Бадоеъул вақоеъ. (Нодир воқеалар). Ғ.Ғулом. – Тошкент: 1979. 18-19-бетлар.
7. Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. – Т.: Хазина. 1996. –Б. 6.
8. А.Ҳайитметов. Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Ўзбек тили ва адабиёти" журнали. 2002 йил, 5-сони. 87-бет.
9. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Т .: Шарқ, 2002. -335 б.